# ERON DAVLATI ELCHILARI HUJJATLARIDA XVI–XIX ASRLAR XIVA XONLIGI AHOLISI HAQIDAGI MA'LUMOTLAR

**Sapayeva Yulduz Xaydarovna,**
*UrDU mustaqil tadqiqotchisi*
*ORCID 0009-0002-7260-1561*
*E.pochta: sternyulduz@gmail.com*

**DOI:** https://doi.org/10.5281/zenodo.19690557

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada XVI–XIX asrlarga oid fors tilidagi tarixiy asarlar va Eron elchilari hujjatlari asosida Xiva xonligi aholisi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, etnik tarkibi hamda siyosiy jarayonlardagi o'rni tahlil qilinadi. Ayniqsa, turkman qabilalarining hududdagi roli, Eron–Xiva munosabatlari va mintaqadagi geosiyosiy vaziyatning aholi turmushiga ta'siri yoritiladi. Ismoil Mirpanjiy esdaliklari asosiy manbalardan biri sifatida tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar.*** *Xiva xonligi, Eron elchilari, turkman qabilalari, Marv, Xuroson, Qojarlar, Ismoil Mirpanjiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, chorvachilik, diplomatik aloqalar.*

***Аннотация.*** *В данной статье на основе персоязычных исторических источников XVI–XIX веков, а также документов иранских послов анализируются население Хивинского ханства, его социально-экономическая жизнь, этнический состав и роль в политических процессах. Особое внимание уделяется роли туркменских племён в регионе, отношениям между Ираном и Хивой, а также влиянию геополитической ситуации на жизнь населения. Воспоминания Исмаила Мирпанджи рассматриваются как один из основных источников.*

***Ключевые слова****: Хивинское ханство, иранские послы, туркменские племена, Мерв, Хорасан, Каджары, Исмаил Мирпанджи, социально-экономическая жизнь, скотоводство, дипломатические связи.*

***Abstract.*** *This article analyzes the population of the Khiva Khanate, its socio-economic life, ethnic composition, and role in political processes based on Persian-language historical sources of the 16th–19th centuries and documents of Iranian envoys. Particular attention is paid to the role of Turkmen tribes in the region, Iran–Khiva relations, and the impact of the geopolitical situation on the life of the population. The memoirs of Ismail Mirpanji are examined as one of the main sources.*

***Keywords:*** *Khiva Khanate, Iranian envoys, Turkmen tribes, Merv, Khorasan, Qajars, Ismail Mirpanji, socio-economic life, pastoralism, diplomatic relations.*

**Kirish.** XVI–XIX asrlar Markaziy Osiyo tarixida murakkab siyosiy jarayonlar, davlatlararo ziddiyatlar va etnik guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bilan ajralib turadi. Xiva xonligi mazkur davrda nafaqat siyosiy markaz, balki turli etnik va ijtimoiy guruhlar yashaydigan hudud sifatida ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Xorazm hududi Eron manbalarida Amudaryo bo'yidagi strategik mintaqa sifatida tavsiflanib, uning Xuroson bilan yaqinligi sababli Eron bilan doimiy aloqada bo'lgan. Ayniqsa, Qojarlar davrida bu aloqalar murakkablashib, harbiy va diplomatik qarama-qarshiliklar bilan boyigan. Mazkur maqolaning maqsadi – Eron elchilari hujjatlari va fors manbalari asosida Xiva xonligi aholisi haqidagi ma'lumotlarni tizimli ravishda tahlil qilishdir.

**Adabiyotlar sharhi.** Fors tilidagi tarixiy manbalar Xiva xonligi tarixini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Bu manbalarda Xorazm hududi ko‘pincha Xuroson bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Qojarlar davriga oid manbalarda Marv va Hirot hududlari Eron ta’sir doirasiga kiritilgan holda talqin qilinadi. Eron elchilari va harbiylari tomonidan yozilgan esdaliklar, xususan Ismoil Mirpanjiy asarlari, hududdagi siyosiy vaziyat va aholi hayoti haqida qimmatli ma’lumot beradi. Shuningdek, ushbu davrni o‘rganishda diplomatik yozishmalar, elchilik hisobotlari va harbiy yurishlar tavsifi muhim manba sifatida xizmat qiladi. Bu manbalarda aholi tarkibi, ularning turmush tarzi, iqtisodiy faoliyati hamda ijtimoiy tuzilmasi batafsil yoritilgan.

**Tadqiqot metodi.** Maqolada tarixiy-tahliliy, qiyosiy va manbashunoslik metodlaridan foydalanildi. Fors tilidagi tarixiy manbalar tahlil qilindi, Eron elchilari hujjatlari solishtirildi, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tarixiy kontekstda o‘rganildi, этник tarkib va turmush tarzi tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi.

**Асосий материаллар**. XVI–XIX asrlarga oid fors tilidagi tarixiy asarlar va elchilik hujjatlari Xorazm (Xiva xonligi)ning siyosiy-geografik holati hamda aholisini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Xorazm fors manbalarida Amudaryo bo‘yida joylashgan Movarounnahr hududi sifatida tavsiflanib, uning Xuroson bilan yaqinligi tufayli Eron bilan tarixiy aloqalari mavjud bo‘lgan [1. 312-315].

Qojarlar sulolasi davrida Xorazmning Eron bilan munosabatlari murakkablashdi. Qojarlar davri fors manbalarida Marv va Hirot hududlari Xuroson tarkibiga mansub deb qaralib, Eron hukmdorlarining ushbu mintaqada o‘z siyosiy ta’sirini tiklashga intilganlari qayd etiladi [2.145-148]. Eron elchilari va tarixchilari asarlarida Xiva xonligi aholisi tarkibi haqida muhim ma’lumotlar uchraydi. Unga ko‘ra, aholining asosiy qismini turkman qabilalari tashkil etgan bo‘lib, ular ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi turmush tarzida yashagan [3.220-225]. Bu qabilalarning doimiy harakatlanishi va bosqinlari mintaqada siyosiy beqarorlikni yuzaga keltirgan. Xiva xonligi aholisi o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar keng tarqalgan bo‘lib, suv tanqisligi, cho‘l iqlimi va o‘zaro urushlar aholi turmushiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan [4.92-102] . Ayrim guvohliklarda turkman qabilalari o‘z mol-mulki va oilalarini saqlab qolish uchun Xiva va Urganch atrofidagi qumli hududlarga chekinishga majbur bo‘lganliklari ta’kidlanadi [5.13].

XIX asr o‘rtalarida Eron tomonidan Marv yo‘nalishida amalga oshirilgan harbiy yurishlar ham fors manbalarida keng yoritilgan. Jumladan, Muhammad Shoh Qojar davrida va undan keyingi Xuroson hokimlari tomonidan olib borilgan harbiy

harakatlar mintaqada xavfsizlikni ta’minlash hamda turkman bosqinlarini cheklash maqsadida amalga oshirilgan [6. 162-172].

XIX asrning ikkinchi yarmida esa fors manbalarida mintaqada Rossiya imperiyasi va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi geosiyosiy raqobat (“Katta o‘yin”) ham tilga olinadi. Bu jarayonlar Xiva xonligi aholisi hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan . Har ikki taraf ham o‘z hurmatini ko‘rsatish va diplomatik aloqalarni saqlashga intilardi. Eron davlati esa o‘zining cheklangan harbiy kuchlarini yetarli oziq-ovqat va zaruriy materiallar bilan ta’minlab turar, ammo mahalliy qo‘shinlarni tartibga solish yoki turkmanlar bosqinini oldini olish uchun yetarli chora ko‘rmagan edi . Xiva xoni Muhammad Aminxon taxminan 1269 hijriyda (1852 yilda) Muhammad Niyozboyni Marv xukmdori etib tayinlagan. Bu shaxs juda zolim bo‘lganligi sababli xalq orasida nafratga uchraydi va turkmanlar tomonidan o‘ldiriladi. Xiva xoni esa Marv hukmdorining o‘ldirilishini bahona qilib katta harbiy kuchlarni Saruk va Marvga yuboradi. Shu davrda Housamus-saltana tomonidan amalga oshirilgan siyosiy aralashuvlar hudud aholisining parokandaligiga sabab bo‘ladi . Mazkur hududda turkman qabilalari ko‘plab urug‘-qabilaviy tuzilmalar asosida yashab, asosan chorvachilik bilan shug‘ullangan. Ular tarkibiga Taka, Salur, Sarud, Tajan, Saraxsiy, Odonli, Jamshidiy, Qoraoyli, Yovmut, Ko‘klan kabi yirik qabilalar kirgan. Shu bilan bir qatorda, ayrim o‘zbek va boshqa mahalliy aholi guruhlari nafaqat chorvachilik, balki savdo-sotiq faoliyati bilan ham mashg‘ul bo‘lganlar. Biroq tabiiy-iqtisodiy sharoitlarning o‘ziga xosligi tufayli don mahsulotlari, xususan bug‘doy va boshqa iste’mol mollari narxi yuqori bo‘lgan. Buning asosiy sababi hudud aholisi yetarli miqdorda urug‘lik zaxirasiga ega bo‘lmaganligi hamda dehqonchilikning yetarlicha rivojlanmaganidadir. Hudud iqtisodiy hayoti, asosan, chorvachilik tarmog‘iga tayanib rivojlangan. Chorvachilikning ayniqsa tuya va qo‘y boqish turlari muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lib, bu faoliyat ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi turmush tarzini belgilab bergan. Doimiy ravishda yaylovdan yaylovga ko‘chib yurish, chorva bilan bog‘liq hayot tarzining ustuvorligi iqtisodiy barqarorlik va bozor munosabatlarining rivojlanishiga sezilarli darajada to‘sqinlik qilgan. Natijada, savdo-sotiq tizimi sustrivojlangan, bozorlar tor doirada faoliyat yuritgan hamda yo‘llarning xavfsiz emasligi tijorat aloqalarining kengayishiga imkon bermagan.

Shu bilan birga, o‘troqlashgan aholi hayotida dehqonchilik ham muhim o‘rin egallagan bo‘lib, aholining katta qismi aynan shu soha orqali kun kechirgan. Ijtimoiy tuzilishda esa urug‘-qabila va patriarxal munosabatlar ustun bo‘lgan. Ota urug‘chiligi asosida shakllangan ijtimoiy tizimda ayollarning jamiyatdagi o‘rni nisbatan past baholangan [5.20-25]. Ularning asosiy vazifalari bola tarbiyasi, uy-ro‘zg‘or ishlari

xususan, kir yuvish, ovqat tayyorlash va eriga xizmat qilish kabi kundalik yumushlardan iborat bo‘lgan.

Nikoh marosimlari ham o‘ziga xos an’analarga asoslangan holda amalga oshirilgan. Odatda, nikoh diniy shaxslar sanalgan qozilar yoki shayxlar vositasida rasmiylashtirilgan. Marosim jarayonida ramziy harakat sifatida qiz oldiga suv qo‘yilib, undan o‘zini bo‘lajak eriga bag‘ishlash so‘ralgan. Qizning roziligi olingach, u suvdan ichib, uni marosim ishtirokchilariga uzatgan, bu esa nikohning tasdiqlanganini bildirgan.

Turkman jamiyatida maishiy va marosimiy hayot ham muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan, chilim chekish, sunnat to‘ylari va aza marosimlari keng tarqalgan ijtimoiy an’analar qatoriga kirgan. Asirlar bilan muomala qilishda esa qat’iy axloqiy va urf-odat me’yorlariga amal qilingan. Masalan, asirni asossiz ravishda o‘ldirish og‘ir gunoh va qabihlik deb hisoblangan. Shu bilan birga, asirlar mehnatidan foydalanish va ularning qochib ketishining oldini olish maqsadida ularni mahalliy ayollarga uylantirish, hamda minimal darajada moddiy ta’minot bilan ta’minlab turish amaliyoti mavjud bo‘lgan [5. 27-30] .

Til masalasida turkmanlar turkiy tillar guruhiga mansub ona tilida so‘zlashgan bo‘lsalar-da, fors tili ham muomala vositasi sifatida keng qo‘llanilgan. Diniy e’tiqod jihatidan ular islom diniga mansub bo‘lib, asosan sunniy mazhab (ahl as-sunna val jamoa) qoidalariga amal qilganlar.

Umuman olganda, ushbu hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot shakllari ko‘chmanchi turmush tarzi, urug‘-qabilaviy tuzilma va an’anaviy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu omillar jamiyatning umumiy rivojlanish darajasi va boshqaruv tizimiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Eronlik harbiy Ismoil Mirpanjiy o‘z esdaliklarida Xiva xonligi va Marv turkmanlari o‘rtasidagi ziddiyatlar hamda to‘qnashuvlari haqida quyidagilarni keltirib o‘tadi: “Hijriy 1270 yil (milodiy 1854) rabiy ul-avval oyida oliy hukmdor Nosiriddin Shoh Qojar farmoni bilan men 500 nafar navkar bilan Marv viloyatiga harbiy yurish uchun yo‘l oldim. Shu vaqtgacha men Ozarbayjon hududining Mug‘on viloyati, shuningdek Shohsun va Ardabil atrofidagi qal’alar hokimi sifatida faoliyat yuritgan edim. Ushbu voqealarni batafsil bayon etish maqsadida boshimdan kechirgan hodisalarni yozma ravishda qayd etishga kirishdim. Mening Xurosonga kelishimdan o‘n ikki yil avval Muhammad Aminxon tomonidan o‘zbek uluslari vakili Muhammad Niyozbiy Marv viloyatiga hokim etib tayinlangan edi. U yetarli boshqaruv salohiyatiga ega bo‘lmagan va o‘z hukmronligi davomida aholiga zulm o‘tkazgan. Natijada Salur, Soruq va Taka turkman qabilalari birlashib, uni o‘ldirdilar. Bu voqeadan so‘ng Xiva xoni Soruq turkmanlariga nisbatan adovatini kuchaytirib, har

yili yaxshi qurollangan minglab suvoriylar bilan Marvga hujum uyushtira boshladi. U Marv yaqinidagi Qorao‘b qishlog‘ini mustahkamlab, qal’a bunyod etdi va turli turkman qabilalarini qayta joylashtirdi. Mirahmadxon Jamshidiy ushbu hududga hokim etib tayinlandi. Uning siyosati nafaqat Marv, balki Axal, Saraxs va boshqa turkman qabilalariga ham og‘ir ta’sir ko‘rsatdi. Natijada ayrim qabilalar Xiva xoni tomoniga o‘tib ketdilar. Shu bilan birga, hududdagi siyosiy vaziyat keskinlashib, aholining katta qismi turli yo‘nalishlarga tarqalib ketdi. Hirot atrofidagi siyosiy voqealar ham vaziyatni yanada murakkablashtirdi. Natijada savdo yo‘llari izdan chiqdi, karvonlar harakati to‘xtadi va Marv iqtisodiy jihatdan tanazzulga yuz tutdi. Husam us-Saltana meni Qandahor va Kobul atrofidagi qo‘zg‘olonlarni bostirish uchun tayinladi. Biroq tez orada Mashhadga yetib borish haqida yangi buyruq oldim. Shu orada Soruq turkmanlari vakillari Husam us-Saltana huzuriga kelib, Xiva xonining zulmidan shikoyat qildilar. Ular agar yordam ko‘rsatilmasa, o‘z yurtlarini tark etishga majbur bo‘lishlarini bildirdilar. Ushbu murojaat saroyga yetkazilib, Marvdagi tartibsizliklarni bartaraf etish bo‘yicha maxsus harbiy topshiriq berildi. Harbiy yurish oldidan zarur tayyorgarlik ishlari olib borildi. Uch polk askar, 500 nafar suvoriy, artilleriya qurollari, uch oylik oziq-ovqat zaxirasi bilan ta’minlandik. Bundan tashqari, ehtimoliy suv tanqisligini hisobga olib, har bir askarga suv zahirasi olish buyurildi. Shuningdek, belkurak, bolta va boshqa zarur anjomlar bilan ta’minlash ishlari ham amalga oshirildi. Shundan so‘ng Husam us-Saltana farmoniga binoan qo‘shin bilan poytaxtdan chiqib, Marv tomon harakatni boshladik.” Ismoil Mirpanjiy o‘z harbiy guruhi bilan Oqdarband hududida qo‘nim topadi. Oqdarband hududi tabiiy-geografik jihatdan nihoyatda muhim strategik nuqta hisoblangan. Ushbu darband ikki tog‘ orasida joylashgan bo‘lib, bir tomoni Kalot tomonga, ikkinchi tomoni esa Paskamar yo‘nalishiga tutashgan. Tog‘lar baland va tik bo‘lib, ayrim joylarda yo‘lning kengligi atigi ikki otliq sig‘adigan darajada tor bo‘lgan. Darbandning ayrim qismlarida himoya minoralari (burjlar) qurilgan bo‘lib, ular orqali harakat qat’iy nazorat ostiga olingan. Bu hudud orqali katta qo‘shinlarning o‘tishi deyarli imkonsiz bo‘lib, u strategik himoya nuqtasi sifatida katta ahamiyat kasb etgan. Hudud yaqinida joylashgan qadimiy qal’a esa o‘tmishda Xiva xoni Ollohqulixon va Xiva beklari tomonidan bosib olinib, talon-toroj qilingan. Natijada mahalliy aholi asirga olinib, mulklari tortib olingan va hudud xarobaga aylangan va keyingi davrlarda ham bu joylarda o‘sha davr asirlarining izlari saqlanib qolgan.

Ismoil Mirpanjiy boshchiligidagi eron harbiylariga Xiva xonligiga soliq to‘laydigan va xonlik zulmidan aziyat chekkan Soruq turkmanlari vakillari bilan aloqa o‘rnatish, ularni Marvdagi vaziyat haqida ogohlantirish hamda yordam kuchlarini tayyorlash vazifasi yuklatilgandi. Bundan tashqari, yo‘llarda xavfsizlikni

ta’minlash, ayniqsa karvonlar harakatini himoya qilish muhim vazifa sifatida belgilangan. Bu maqsadda ularga qo‘shimcha harbiy kuchlar, moliyaviy mablag‘lar va zarur ta’minot vositalari ajratilishi va’da qilinadi. Shuningdek, turkman qabilalari bilan diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘yish, ularni Eron davlati tomoniga og‘dirish ham strategik vazifa sifatida belgilanadi. Turkman aholisini eronliklar o‘z tomoniga og‘dirish orqali Xiva xonligi harbiy qismlarining asosiy qismidan va davlat g‘aznasiga to‘lanadigan soliq to‘lovchilaridan mahrum qilishga erishishi mumkin edi. Chunki aynan xonlik armiyasi tarkibining katta ulushini aynan turkman aholisi tashkil qilardi. Mirpanjiyning yozishiga ko‘ra, Eron elchilarini Soruq turkmanlarining oqsoqollari Marvda iliq qarshi oladilar. Marv aholisi turli hududlardan Buxoro, Xiva, Hirot va ularga yaqin joylardan kelib shakllangan edi. Ular qo‘shin lagerini tomosha qilish uchun tashqariga chiqishgan . Marvning yetakchi shaxslari sanalgan Karimverdi eshon, Bahodirxon va boshqa oqsoqollar eronliklarning harbiy lageriga tashrif buyurib, muzokaralar olib borganlar. Muzokaralarda ularga quyidagi ko‘rsatmalar berilgan:

1. Savdo karvonlarini, ayniqsa Buxoro yo‘nalishidagi karvonlarni xavfsiz yuborish;
2. Hirot va Maymana yo‘nalishlaridagi savdo harakatiga erkinlik berish;
3. Marvda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash;
4. Xavf yuzaga kelganda darhol xabar yetkazish.

Shuningdek, Marvda bozorni qayta tiklash va iqtisodiy hayotni jonlantirishga kelishib olingan.

Muallif Marv shahrini ikki qismga ajratadi:

1. Birinchi qismi Muhammadniyozboy tomonidan qurilgan bo‘lib, daryo bo‘yida joylashgan va keying davrlarda xaroba holatga kelib qolgan.
2. Ikkinchi qismi marhum Bayram Alixon tomonidan bunyod etilgan bo‘lib, daryodan taxminan 4 farsax uzoqlikda joylashgan.

Ilgari bu yerda rivojlangan infratuzilma, xususan, bozorlar, masjid-madrasalar va hammomlar mavjud bo‘lgan. Ammo keyinchalik Abulfayzxon davrida ularning barchasi vayron qilingan.

**Xulosa.** Fors manbalari va Eron elchilari hujjatlari XVI–XIX asrlarda Xiva xonligi aholisi haqida muhim tarixiy ma’lumotlarni beradi. Ushbu manbalar orqali quyidagi xulosalarga kelish mumkin, жумладан, Xiva xonligi aholisi ko‘p etnik tarkibga ega bo‘lgan, Turkman qabilalari siyosiy va harbiy hayotda muhim rol o‘ynagan, iqtisodiyot asosan chorvachilikka asoslangan, siyosiy beqarorlik va tashqi bosimlar aholi turmushiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan, Eron va Xiva o‘rtasidagi

munosabatlar mintaqa taraqqiyotiga bevosita ta’sir qilgan. Umuman olganda, ushbu maнbalar Xiva xonligi tarixini chuqurroq o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirzo Muhammad Hasanxon E’timod us-Saltane. Mir’ot ul-buldon. Tehron: Nashr-i Amir Kabir, 1984. – B. 312–315.
2. Rizoqulixon Hidayat. Ravzat us-safo-yi Nosiriy. Tehron: Kitobxona-yi Xayyom, 1960. – J. . B. 145–148.
3. Muhammad Taqiyxon Sipehr. Nosix ut-tavorix. Tehron: Intishorot-i Asotir, 1998. – J. 3. B. 220–225.
4. Abdulkarim Buxoriy. Tarix-i Turkiston. Tehron: Bunyod-i Farhangi Eron, 1976. – B. 98–102.
5. Ismoil Mirpanjiy. Kundalik kuzatishlar va hisoblar. Tehron: Nashr-i Amir Kabir. 1984. – B. 13.
6. Muhammad Yusuf Munir. Tarix-i Navoiy Xuroson. Mashhad: Ostoni Quds Razaviy, 1988. – B. 167–172.
7. Fereydun Odamiyat. Andeshahoi siyosiy dar davra-yi Qojariya. Tehron: Xorazmiy, 1976. – B. 112–118.